

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FUQAROLARNING VIJDON ERKINLIGINI TA'MINLASHNING DOLZARBLIGI

Narqulova Muqaddas Ulug'bekovna ¹

¹ Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Ijtimoiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 02.02.2025

Revised: 03.02.2025

Accepted: 04.02.2025

KALIT SO'ZLAR:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida – O'zbekiston boshqaruvning Respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekani belgilangan.

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohaga oid davlat siyosati doirasida amalga oshirilayotgan chora –tadbirlar to'g'risida ma'lumot berilgan.

KIRISH. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida –O'zbekiston boshqaruvning Respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekani belgilangan. Konstitutsiyaning 35- moddasiga muvofiq, hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega, shuningdek, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi. Dunyoviy davlatda diniy qadriyatlar ham muhim o'rin tutadi. Diniy qadriyatlar O'zbekiston xalqining madaniyati, turmush tarzi, urf-odatlarini, odob –axloqining shakllanishi hamda ularning avloddan avlodga meros bo'lib o'tishiga xizmat qilib kelmoqda.

Diniy e'tiqodlar va diniy bag'rikenglik, dinlarning asl insonparvarlik mohiyati jamiyatning ma'naviy –axloqiy asoslaridan biri bo'lib, O'zbekiston xalqini birlashtirish va

jipslashtirishga xizmat qiluvchi, oilalarda o'zaro hurmat – izzat va mehr – oqibatni mustahkamlovchi asriy qadriyatlar manbaidir.

Vijdon erkinligi konstitutsiyaviy huquqi dunyoviy davlatdagina amalga oshirilishi mumkin. dunyoviy davlat diniy qadriyatlarning, e'tiqodlarning hurmat va himoya qilinishi, izchil rivojlanishi uchun zarur ijtimoiy muhit yaratadi.

Hozirda fuqarolarning vijdon erkinligi huquqini yanada mustahkam ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan "O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qonun loyihasi ishlab chiqilib, e'lon qilingan va muhokamaga taqdim etilgan. Mazkur qonun loyihasiga asosan, fuqarolarning vijdon erkinligiga bo'lgan huquqini izchil ro'yobga chiqarish, jamiyatda konfessiyalararo munosabatlarni yanada mustahkamlash yo'nalishida davlat siyosatini amalga oshirishning asosiy mexanizmlari sifatida quyidagilar belgilangan:

- Fuqarolarning vijdon erkinligiga bo'lgan huquqini amalga oshirish kafolatlarini ta'minlash, diniy tashkilotlarning qonuniy faoliyati uchun zarur tashkiliy – huquqiy shart – sharoitlar yaratish;

- Davlat organlarining diniy tashkilotlar bilan o'zaro aloqasi va hamkorligini vakolatli davlat organi orqali muvofiqlashtirish;

- Konfessiyalararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlashda davlat organlari, diniy tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash;

- Ziyorat turizmi, boshqa diniy rasm – rusumlar va marosimlarni xavfsiz o'tkazishni ta'minlash masalalari bo'yicha fuqarolar, diniy tashkilotlar va davlat organlarining hamkorligini ta'minlash;

- Davlat ro'yxatidan o'tgan diniy ta'lim muassasalarida diniy tashkilotlar uchun yuqori malakali xodimlarni tayyorlashga ko'maklashish;

- Diniy ta'lim muassasalarida O'zbekiston Respublikasida diniy sohani tartibga soluvchi va dunyoviy davlat asoslarini belgilab beruvchi qonunchilik hujjatlari bo'yicha bilim berish uchun shart – sharoitlar yaratish;

- Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqini ro'yobga chiqarish, jamiyatda konfessiyalararo munosabatlarni mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan ishlardan fuqarolarning xabardorligini oshirish.

Bundan tashqari, ta'lim jarayonida, uni tashkil qilishda va ta'lim xizmatlarini ko'rsatishda ta'lim oluvchilarda diniy aqida va qarashlardan xoli tarzda ilmiy bilim,

mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish, qarashlar xilma –xilligini hurmat qilish, umumjamiyat manfaatlariga hissa qo'shish g'oyalariga tayangan holda, ta'lim yo'nalishida dunyoviylikda ta'minlashning :

- Ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatini ta'minlashga doir izchil va tizimli chora – tadbirlar amalga oshirish;

- Fuqarolarning qonunda belgilangan tartibda dunyoviy va diniy ta'lim olish huquqini ta'minlash;

- Qonunlarga asosan belgilangan majburiy ta'lim olishni biror –bir asosga ko'ra cheklashga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rib borish;

- Mamlakat aholisida, ayniqsa, yoshlarda ilmiy, aqliy salohiyatni yuksaltirish, vatanparvarlik tuyg'ularini, milliy qadriyatlar va ijtimoiy axloq normalariga bo'lgan hurmat ruhini kuchaytirish;

- Ta'lim tizimida diniy betaraflikni saqlash va diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'ymaydigan muhitni ta'minlab borish;

- Ta'lim tizimida o'quv dasturlarining inklyuzivligini ta'minlab borish;

- Ta'lim oluvchilarda ularga keng imkoniyatlarni taqdim etadigan aniq va gumanitar fanlar va ijtimoiy fanlarni, san'atni o'z ichiga olgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish;

- Pedagog kadrlarni tayyorlash va tanlashda ularning diniy bag'rikenglikni saqlagan holda bilim berish, axloq va estetikani singdirish qobiliyatini o'stirish hamda mustahkamlash kabi asosiy mexanizmlari nazarda tutilgan.

Konsepsiya mamlakat aholisining, ayniqsa, yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirishga, ko'pmillatli O'zbekiston xalqining totuvligi va tengligini ta'minlashga, davlatchilikning huquqiy asoslarini mustahkamlashga zamin yaratadi. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash maqsadida yagona davlat siyosatini amalga oshirish va uning natijalari fuqarolarning teng huquqliligini kafolatlaydi, shuningdek, dunyoviylik turlicha talqin qilinishining hamda buzilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

2. parliament.gov.uz

3. Isamutdinova, D. (2024, October). MILLIY TARIX VA MADANIYATNI AKS ETTIRUVCHISI SIFATIDA O'XSHATISHLAR. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS (Vol. 1, No. 9, pp. 38-41).

4. Marifjanovna, I. D. (2024). INGLIZ TILINI ORGANISHNING SAMARALI USULLARI. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(28), 36-37.

5. Marifjanovna, I. D. (2024). NEMIS TILINI ORGANISHNING SAMARALI USULLARI. PEDAGOG, 7(9), 138-139.

6. Marifjanovna, I. D. (2024, June). The Importance of Poems and Songs in the Development of German Vocabulary in Young Children. In Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences (USA) (Vol. 8, pp. 1-3).

7. Durdon, I. (2024). INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING CHET TILI O'QITISHDAGI O'RNI. *СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ИССЛЕДОВАНИЯ*, 1(1), 227-232.

8. Isamutdinova, D. (2024). INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA CHET TILI DARSLARINI TASHKIL QILISH. *СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ИССЛЕДОВАНИЯ*, 1(1), 86-89.

9. Isroilova, H., & Isamutdinova, D. (2024). INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL QILISH. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(2), 218-223.

10. Isamutdinova, D. (2024). LANGUAGE AS A CULTURAL HERITAGE. *Экономика и социум*, (4-1 (119)), 175-179.

11. Жаббарова, Ю. (2024). Chet ellik talabalar uchun lingvistik va madaniy komponentlarni o'z ichiga olgan darsliklar va o'quv qo'llanmalarini yaratish. *Лингвоспектр*, 3(1), 180-184.

12. Xujamuradovna, J. Y. (2024). MATN SHAKLLANISHIDA QARINDOSHLIK ATAMALARINING O'ZIGA XOS O'RNI. *worldly knowledge conferens*, 8(2), 71-73.

13. Xujamuradovna, J. Y. (2024). "QARINDOSHLIK" KONSEPTI SEMANTIK KO'LAMINING YAQIN VA UZOQ HUDUDLARIGA BIR NAZAR. *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING*, 5(2), 1468-1470.

14. Жаббарова, Ю. (2023). Значение интеграционных процессов в образовании. Актуальные проблемы обучения социально-гуманитарных наук в медицинском образовании, 1(1), 57-64.

15. Жаббарова, Ю. (2023). Образование молодежи—судьба народа, прогресс родины. Актуальные проблемы обучения социально-гуманитарных наук в медицинском образовании, 1(1), 48-56.

16. Жаббарова, Ю. Х. (2023). ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «РОДНЯ» В УСЛОВИЯХ ДИСКУРСА. In НАУЧНЫЕ РЕВОЛЮЦИИ: СУЩНОСТЬ И РОЛЬ В РАЗВИТИИ НАУКИ И ТЕХНИКИ (pp. 81-83).

17. Жаббарова, Ю. (2022). KINSHIP TERMINOLOGY AS AN IMPORTANT ETHNOGRAPHIC AND HISTORICAL SOURCE. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА, 3(5).

18. КОННОТАЦИЯ, Қ. Т. И. П. Жаббарова Юлдуз Хужамурадовна. SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY.

